

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14174416>

MA'NAVIY TARBIYA JARAYONIDA ALLOMALAR MEROSINING TUTGAN O'RNI

Jumayeva Shaxlo Suyunovna

Iqtisodiyot va Pedagogika Universiteti NTM o'qituvchisi

jumayevashaxlo507@gmail.com

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy va ma'naviy merosni asrab-avaylash, ulardan milliy-ma'naviy tarbiy jarayonida oqilona foydalanish hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etayotganligi borasida fikr yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** milliy va umuminsoniy qadriyatlar, odob, tarbiya, ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik, iymon-e'tiqod.*

THE ROLE OF THE HERITAGE OF SCHOLARS IN THE PROCESS OF SPIRITUAL EDUCATION

***Abstract.** In this article, the preservation of the scientific and spiritual heritage left by our great ancestors and their rational use in the process of national-spiritual education is of great importance in the current period.*

***Keywords:** national and universal values, manners, education, goodness, high morality, intelligence, faith.*

KIRISH.

Yoshlarning qalbi va ongida sog'lom hayot tarzi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat-ehtirom tuyg'usini shakllantirishda, har jihatdan barkamol etib tarbiyalashda buyuk mutafakkir ajdodlarimiz merosi katta ahamiyat kasb etadi. Zero,

hayotning asl mazmun-mohiyatini anglab etishga o‘z umri va salohiyatini bag‘ishlagan allomalarimizning asarlarida sog‘lom avlod tarbiyasi bilan bog‘liq masalalarga alohida o‘rin berilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, ” Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga etishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi "virusi" tarqalishining oldini olishdir [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

O‘zbek xalqi qadimdan sog‘lom farzand tarbiyasi masalasiga katta mas’uliyat, jiddiy e’tibor bilan yondashgan. Masalan, bola tarbiyasi bilan asosan diniy-dunyoviy ilm sohasida oqila enagalar yoki ilm-ma’rifatda katta obro‘-e’tiborga ega ustoz-murabbiylar shug‘ullangan. Bu haqda “Qobusnomada” quyidagi fikrlar bildirilgan: “Farzandingga hunar va fazl o‘rgatmakda taqsir qilmag‘il va har ilmni o‘rgatuvchi muallimlar ta’lim uchun ursalar, sen shafqat ko‘rguzgil, mayli ursunlar, nedinkim yosh o‘g‘lon ilm va adabni tayoq bila o‘rganur va o‘z ixtiyori bila o‘rganmas. Ammo farzand beadab bo‘lsa va sening ul sababdin qahring kelsa, o‘z qo‘ling bila urmag‘il, muallimlarning tayog‘i bila qo‘rqutg‘il. Bolalarga muallimlar adab bersunlar, toki sendin o‘g‘lingning ko‘nglida gina qolmasin. Ammo uning ko‘ziga o‘zingni haybatlig‘ ko‘rguzg‘il, to seni xor tutmasin va hamisha sendin qo‘rqib yursin. U bir narsani orzu qilsa, qudrating etguncha undin ayamag‘il, to tanga havasi bila sening o‘limingni tilamasin. Farzandga adab, hunar o‘rgatmakni meros deb bilg‘il. Agar sen unga xoh adab o‘tgatg‘il, xoh o‘rgatmag‘il turmush mashaqqatlarining o‘zi unga o‘rgatur. Undoqkim debdurlar, ota-ona tarbiyalamasa, kecha va kunduz uni tarbiyalaydur”. [2].

Koshifiyning fikricha, “Imkoni boricha (bolaga) yaxshi ta’lim-tarbiya berishga intilish lozim, toki u ijobiy xususiyatlarni o‘zlashtirsin va yaramas xatti-harakatlardan o‘zini muhofaza qila olsin”. Xususan, u murabbiy odobi to‘g‘risida shunday deydi: “Murabbiy (bolaga) nasihat va ta’lim berishda lutf va odob qoidalariga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi, balki hilvat joyda bolaga gapirish zarur. Agar (murabbiy) nasihat berishning fursati kelganini bilsa, unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim, chunki bizning zamonamizda muloyim va

hushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir". [3]. Husayn Voiz Koshifiy ta'kidlagan ayni shu xislatlar va fazilatlarni yoshlarimiz ongiga singdira borilishi ularni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR.

Shubhasiz, farzand boshqalarni hurmatlash va ularga yaxshilik qilish sabablarini va bu ezgu odat xosiyatidan keladigan yaxshiliklarni o'rgansa, eng asosiysi, qalbiga singdira olsa, majburan yoki zarurat yuzasidan emas, balki chin qalbidan bu ziynatli amalni bajaradi. Fazilatli kishilarni ulug'lashga astoydil harakat qiladi. Bu odob insonni ulug'lash va ehtirom qilishning yuksak pog'onasidir. Ajdodlarimiz bu ulug'vor xislatlarni qalblariga mustahkam joylab, kattayu kichikka o'z o'rnida qo'llay bilganlar. Ana shu ruhda voyaga etgan farzanddan avvalo ota-ona va butun jamiyat manfaat ko'radi.

Milliy uyg'oni davri o'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Abdulla Avloniy (1878-1934) «Turkiy Guliston yohud ahloq» kitobida ta'kidlaganidek: "Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. Rasuli akram nabiyi muhtaram sallollohu alayhi vasallam afandimiz: "Insonlarning karami dinidadur, muruvvati aqlindatur, hasabi ahloqindatur", - demishlar". [4].

MUHOKAMA. Avloniy axloqiy-ta'limiy, ma'rifiy-tarbiyaviy asarlari bilan yosh avlodni ezgulik, yuksak axloqiylik, ziyolilik ruhida tarbiyalashga chaqirgan adib yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qimoq, o'qitmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchlik, kasalsiz jasad lozimdur. Sog' badanga ega bo'lmagan insonlar amallarinda, ishlarinda, ibodatlarinda kamchilik qilurlar. Biz sihatimizni saqlamak ila amr olinganmiz, shuning uchun vujudimizni hifzi-sihatga zid bo'lgan yomon odatlar ila churitmakdan saqlanmakligimiz lozimdur. Badan tarbiyasining fikr tarbiyasiga ham yordami bordur. Jism ila ruh ikkisi bir cho'ponning o'ng ila tersi kabidur. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, cho'ponning ustini qo'yib

astarini yuvib ovora bo‘lmoq kabiturki, har vaqt ustidagi kiri ichiga uradur. Fikr tarbiyasi uchun mahkam va sog‘lom bir vujud kerakdur”. [5].

Abulbarakot Qodiriy esa tarbiya ta’sir qiladigan kishilarni uch toifaga bo‘ladi: “Birinchisi – hanuz oq qorani tanimagan bola. Uning tabiati hali yomonlik g‘ubori bilan bulg‘anmagan, yuragi esa botil ishlar zulmati bilan qoralanmagan bo‘ladi. Bunday bolaga nasihat tez ta’sir qiladi. Bunday bolani to‘g‘ri yo‘lga osonlik bilan o‘rgatish mumkin.

Ikkinchisi – oq bilan qorani ajratadigan bo‘lib qolgan bola. Ulardan ba’zilari o‘z nafsining g‘alabasi bilan yaxshilik tomonga burila olmay yurgan bo‘ladi. U qilayotgan ishining yomonligini biladi. Nuqsonlarini esa e’tirof etadi. Bunday odamni tarbiyalash birinchisiga nisbatan qiyinroq, ammo unga doimiy tarbiya berilib, har xil nasihatlar va tanbehlar berib borilsa, albatta, yaxi yo‘lga kirib ketadi.

Uchinchisi – oilada botil xayol va fosid fikrlar bilan ulg‘aygan kishi. U umr bo‘yi nohaq ishlarni haq deb bilib kelgan va shunga astoydil e’tiqod qo‘ygan kishi bo‘ladi. Yomonlik qilsa ham uni o‘zicha yaxshilik deb o‘ylaydi. Bunday kishini tarbiya qilish juda og‘ir. Uning tarbiyasiga kirishish – tirnoq bilan quduq qazish yoki hali qizib cho‘qqa aylanmagan temirni bog‘lash bilan barobar.

Barxurdor ibn Mahmud: “Otalarning o‘z farzandlariga nisbatan bo‘lgan muhabbat qasri asoslaridan biri – butun kuch va quvvatlarini farzandlarini farosat, kamolot bilan bezatib, ularning vujudini kasbu hunar libosi bilan kiyintirmoqlaridan iboratdir”, deb aytadi. Olim bolalarni yomon, bilimsiz kishilar bilan doimo hamsuhbat bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Chunki ular nimani ko‘rsalar va kimga ergashsalar o‘a narsalarga tezda ko‘nikib qolishadi. Agar shu hol ro‘y bersa, undan so‘ng Luqmon va Aflotunning mingta pandu nasihati bilan ham ularning ko‘nglidan o‘rgangan narsalarini chiqarib bo‘lmasligini ta’kidlaydi .[6].

Farzand go‘yoki bir oppoq sahifa, unga qanday ilm-tarbiya berilsa shu asosida uning dunyoqarashi, odamlarga munosabati, uning xususiyatlari shakllanadi. Farzand go‘yoki bir oppoq sahifa, unga qanday ilm-tarbiya berilsa shu asosida uning dunyoqarashi, odamlarga munosabati, uning xususiyatlari shakllanadi. Bu borada

Xurramiy: “Keksalarning nasihatlarini yoshlar uchun bog‘bon niholni tarbiyat qilgani kabidir. Bog‘bon niholdan o‘sib chiqqan nomunosib shoxlarni butab turadi, yon-atrofida esa foydasiz giyohlarning o‘sib chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Uning yaxshi o‘sishi uchun butun kuchini sarflaydi. Shunday qilinsa nihol baquvvat bo‘lib o‘sadi. Katta bo‘lganda shirin shakar meva qiladi. Bordiyu, ortiqcha shoxlari kesib turilmasa, nihol tez o‘sib etilsada, yaxshi hosil bermaydi, bog‘bonga esa undan foyda kam bo‘ladi. Demak, bilingki, bola ham xuddi niholning o‘zidir. Agar u tarbiyat qilinmasa, yomon fe‘llarga muhtalo bo‘ladi va falokat xashaklari o‘rtasida so‘lib bitadi”, deb yozadi. [7]. Fitrat esa: «Garchi har bir inson beshikdan to qabrgacha tarbiya olish qobiliyatiga ega bo‘lsa-da, lekin uni bolalikdan tarbiyalash ta’sirliroq va juda muhimdir. Odamni tarbiya qilish uni jismonan, fikran va xulqan kamolga etkazib, saodatga erishishga qobil qilishdan iboratdir», deydi. [8].

XULOSA.

Sog‘lom va barkamol avlodni shakllantirishda bu odoblarni tarbiyaning poydevori deb bilish lozim. Zero, bu fazilatli amallar insonni aziz qiladi, ular shaxsni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Farzandlar xushxulq va yuqori odobga odatlanishlari, katta yoshdagilarni hurmatlash, olimlarni ulug‘lash hamda xushmuomala bo‘lib ulg‘ayishlarida to‘g‘ri tarbiya muhim o‘rin tutadi. Farzand keksalarni hurmat qilish, e‘zozlashda pog‘onama-pog‘ona ko‘tarilib boradi. Yoshligidanoq o‘zidan katta yoshdagilarning haqlarini tushunadi hamda ilm, fazl va o‘rin jihatidan o‘zidan yuqori bo‘lganlarni izzat-hurmat etish odoblarini ham o‘rganishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, farzandlarni iymon-e‘tiqodli, aql-zakovatli, irodasi mustahkam, bilimli va dono, o‘z yurti tarixi, milliy qadriyatlari hamda buyuk ajdodlar qoldirgan ilmiy va ma’naviy merosni ko‘z qorachig‘iday saqlashga o‘rgatish oiladan, ota-ona o‘gitlaridan boshlanib, balog‘at yoshigacha bo‘lgan davr va undan keyingi davrlarda ham izchil amalga oshirilishi lozim. Inson hayotining dastlabki yillarida oddiy maslahatlar, savol-javoblar, shaxsiy ibrat vositasida olib borilgan tarbiya keyinchalik murakkab o‘qitish usullariga hamda passiv tarbiya ob’ektidan o‘z-o‘zini

tarbiyalashning aktiv sub'ektiga aylantiriladi. Bu borada allomalarimiz merosi bugun ham ma'naviyatimizni boyitishga, barkamol avlodni tarbiyalashdek oliy maqsadga erishishga xizmat qilib kelmoqda. Zero, sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asosini qurish deganidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Shavkat Mirziyoev .2017 19 sentyabr kuni BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida nutqi.
2. Кайковус. Қобуснома.С.Долимов, У.Долимов.Т.:2011. 204-b.
3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoni; Axloqiy muhsiniy. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2011. – B. 168.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud ahloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 18.
5. Avloniy A. Turkiy Guliston yohud ahloq. www.ziyouz.com kutubxonasi. – B. 36.
6. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони / М.Ҳасаний таржимаси. –Т.: Фан, 1994. –Б. 9.
7. Одоб бўстони ва ахлоқ гулистони / М.Ҳасаний таржимаси. –Т.: Фан, 1994. –Б. 28.
8. Abdurauf Fitrat. Najot yo‘li. – T.: Sharq, 2001.37-b.